



## Budjetlararo munosabatlardagi muammolarni hal etishning ustuvor yoʻnalishlari

**Rustamov Davron  
Rustamovich**

*TDIU Buxgalteriya hisobi fakulteti dekani  
DSc, professor*

Hududlararo moliyaviy nomutanosiblik mamlakatning barqaror va muvozanatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga salbiy taʼsir koʻrsatuvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Mazkur nomutanosiblik davlatning strategik dasturlari hamda ijtimoiy-iqtisodiy siyosati samaradorligini pasaytirib, ayrim hududlarning mavjud resurs va imkoniyatlaridan toʻliq foydalanishiga toʻsqinlik qiladi. Natijada hududlar oʻrtasida iqtisodiy rivojlanish darajasi, aholi daromadlari va ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarida sezilarli tafovutlar yuzaga keladi.

Hududlar kesimida moliyaviy resurslarning notekis taqsimlanishi, avvalo, ularning iqtisodiy salohiyati, soliq bazasi, ishlab chiqarish hajmi va infratuzilma rivojlanganlik darajasidagi farqlar bilan izohlanadi. Bunday sharoitda iqtisodiy jihatdan kuchli hududlar oʻz daromad manbalari hisobidan tezroq rivojlanish imkoniyatiga ega boʻlsa, nisbatan sust rivojlangan hududlar markazlashgan moliyaviy qoʻllab-quvvatlashga ehtiyoj sezadi. Bu esa, oʻz navbatida, hududlararo tengsizlikning chuqurlashishiga va ijtimoiy keskinlikning ortishiga olib kelishi mumkin.

Shu sababli hududlararo moliyaviy nomutanosiblikni kamaytirish va resurslarni adolatli taqsimlash davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatida ustuvor vazifalardan biri sifatida qaraladi. Bu borada fiskal siyosatning samarali mexanizmlarini joriy etish, xususan, budjetlararo transfertlar tizimini takomillashtirish, hududlarning oʻz daromad bazasini kengaytirish hamda ularning moliyaviy mustaqilligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, davlat tomonidan hududiy rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish orqali infratuzilmani rivojlantirish, investitsiya muhitini yaxshilash va yangi ish oʻrinlarini yaratish imkoniyatlarini kengaytirish zarur.

Bundan tashqari, hududlararo moliyaviy nomutanosiblikni bartaraf etishda zamonaviy boshqaruv yondashuvlari, jumladan, natijadorlikka yoʻnaltirilgan budjetlashtirish, raqamli texnologiyalar asosida moliyaviy oqimlarni monitoring qilish hamda ochiqlik va shaffoflikni taʼminlash muhim rol oʻynaydi. Ushbu choralar nafaqat moliyaviy resurslardan samarali foydalanishga, balki davlat boshqaruvi sifatini oshirishga ham xizmat qiladi.

2023-2025-yillar kesimida hududlar boʻyicha daromadlar, xarajatlar va budjetlararo transfertlar dinamikasi tahlili hududlararo moliyaviy nomutanosiblikning saqlanib qolayotganligini koʻrsatadi. Jumladan, 2023-yilda jami daromadlar 55,7 trln soʻmni tashkil etgan boʻlsa, xarajatlar 101,7 trln soʻmga yetgan va natijada 46,0 trln

soʻmlik transfertlarga ehtiyoj yuzaga kelgan. 2024-2025-yillarda transfertlar hajmining sezilarli darajada kamayishi (mos ravishda 16,8 trln va 18,5 trln soʻm) kuzatilgan boʻlsa-da, bu holat hududlarning moliyaviy mustaqilligi toʻliq taʼminlanganini anglatmaydi, balki ayrim hududlarda xarajatlar optimallashtirilgani yoki daromad bazasi nisbatan kengayganligini bildiradi. Hududlar kesimida tahlil shuni koʻrsatadiki, Qoraqalpogʻiston Respublikasi, Andijon, Qashqadaryo, Namangan, Surxondaryo va Fargʻona viloyatlarida xarajatlar daromadlarga nisbatan ancha yuqori boʻlib, ular yuqori darajada budjetlararo transfertlarga tayanadi. Aksincha, Navoiy viloyati va Toshkent shahri kabi hududlarda daromadlar salmogʻi yuqori boʻlib, transfertlarga ehtiyoj nisbatan past darajada. Bu esa hududlarning iqtisodiy salohiyati, soliq bazasi va investitsion jozibadorligidagi sezilarli tafovutlar mavjudligini tasdiqlaydi.

## 1-jadval

**2023-2025-yillarda hududlar boʻyicha daromadlar, xarajatlar va budjetlararo transfertlar koʻrsatkichlari (mlrd. soʻm)<sup>1</sup>**

№	Hududlar nomi	2023-yil			2024-yil			2025-yil		
		Daromad	Xarajat	Transfert	Daromad	Xarajat	Transfert	Daromad	Xarajat	Transfert
1	Qoraqalpogʻiston Respublikasi	2 843,7	6 806,0	3 962,3	2 933,1	5 637,5	2 077,9	3 346,3	5 569,3	2 223,0
2	Andijon viloyati	3 931,2	8 137,3	4 206,0	3 782,0	6 757,4	1 913,8	4 513,1	6 693,1	2 180,0
3	Buxoro viloyati	3 876,6	5 968,5	2 091,9	3 898,8	5 348,1	361,1	4 573,3	5 267,1	693,8
4	Jizzax viloyati	2 227,9	4 645,7	2 417,8	2 151,1	3 847,2	888,6	2 523,6	3 626,7	1 103,1
5	Qashqadaryo viloyati	4 607,5	10 519,3	5 911,8	4 572,5	6 585,8	927,0	5 264,2	6 238,5	974,3
6	Navoiy viloyati	3 039,4	4 046,1	1 006,7	2 690,3	3 802,6	182,5	3 384,2	3 476,7	92,5
7	Namangan viloyati	3 516,8	8 113,6	4 596,7	3 391,4	5 983,4	1 984,0	3 942,8	6 171,2	2 228,4
8	Samarqand viloyati	5 100,1	8 778,5	3 678,4	5 312,6	7 678,6	1 588,5	5 915,3	8 008,6	2 093,3
9	Surxondaryo viloyati	3 043,0	7 944,0	4 901,0	2 989,1	5 541,5	1 832,8	3 464,7	5 527,0	2 062,3
10	Sirdaryo viloyati	1 390,3	3 147,7	1 757,3	1 528,1	2 752,1	901,8	1 739,5	2 551,6	812,1
11	Toshkent viloyati	6 024,1	7 770,3	1 746,2	5 448,4	7 041,6	517,4	6 824,3	7 086,9	262,6
12	Fargʻona viloyati	5 169,3	9 889,9	4 720,6	5 273,6	8 131,9	1 943,7	6 027,6	8 171,4	2 143,8
13	Xorazm viloyati	2 740,7	5 610,0	2 869,3	2 876,9	4 691,1	1 203,8	3 166,4	4 497,2	1 330,8
14	Toshkent shahri	8 218,3	10 364,1	2 145,8	10 176,9	13013,0	513,9	11 108,5	11370,7	262,2
	Jami	<b>55 728,9</b>	<b>101740,7</b>	<b>46 011,7</b>	<b>57 024,7</b>	<b>86811,6</b>	<b>16 836,7</b>	<b>65 793,8</b>	<b>84256,0</b>	<b>18 462,2</b>

Mazkur nomutanosibliklarni bartaraf etish uchun, avvalo, budjetlararo munosabatlarni takomillashtirishning ustuvor yoʻnalishlarini belgilash zarur. Xususan, hududlarning oʻz daromad manbalarini kengaytirish, mahalliy soliqlar va yigʻimlarning samaradorligini oshirish, shuningdek, hududiy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, transfertlar ajratishda aniq mezonlarga asoslangan, shaffof va natijadorlikka yoʻnaltirilgan mexanizmlarni joriy etish talab etiladi.

Bundan tashqari, fiskal markazlashuv darajasini maqbullashtirish, hududlarning moliyaviy mustaqilligini oshirish hamda raqamli texnologiyalar asosida budjet jarayonlarini boshqarishni takomillashtirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Ushbu chora-tadbirlar hududlararo moliyaviy nomutanosiblikni kamaytirish, resurslardan samarali foydalanish va mamlakatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini taʼminlashga xizmat qiladi.

<sup>1</sup> Oʻzbekiston Respublikasining “2026-yil uchun Oʻzbekiston Respublikasining Davlat budjeti toʻgʻrisida”gi OʻRQ-1105-son Qonuni.

Budjet tizimini isloh qilishning ustuvor yoʻnalishlaridan biri hududlarda iqtisodiy oʻsishni ragʻbatlantirishga yoʻnaltirilgan, barcha darajadagi budjetlarning mustaqilligini, hududiy ijtimoiy-iqtisodiy muvozanatni taʼminlashi va ularning budjet taʼminlanganligi darajasidagi tafovutni qisqartirishga yoʻnaltirilgan samarali budjet tizimini shakllantirish hisoblanadi.

Oʻzbekistonda iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichida hududlar taraqqiyotiga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Xususan, budjet ochiqligini taʼminlash borasidagi islohotlarni amaliyotga joriy etilishi birinchidan, davlat budjetini samarali ishlatilishini taʼminlasa, ikkinchidan, jamoat nazoratini kuchayishiga olib keladi, uchinchidan, fuqarolar yordamida uzoq yillardan beri hal boʻlmayotgan ijtimoiy muammolarni yechilishiga imkoniyatlar yaratildi.

Shuning uchun aholining turmush farovonligini oshirish, ijtimoiy muammolarini hal etish, ularga munosib yashash sharoitlarini yaratish maqsadida budjetdan ajratiladigan mablagʻlarni taqsimlash jarayonida fuqarolarimiz ishtirokini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shuning uchun budjet ochiqligi aholiga qator imkoniyatlar yaratadi. Jumladan:

- budjet ochiqligi budjet va budjet tizimiga oid maʼlumotlarning keng jamoatchilikka ochiqligi va shaffofligini taʼminlaydi;
- budjet mablagʻlarining shakllanishi va sarflanishi ustidan parlament va jamoatchilik nazoratini kuchaytiradi;
- budjet ochiqligi tamoyillariga asoslangan holda “tashabbusli budjet” loyihasi orqali fuqarolarimizni davlat budjeti mablagʻlarini maqsadli sarflanishida faol ishtirok etishlariga imkoniyat yaratadi;
- budjet hisobidan qilinayotgan xarajatlar toʻgʻrisidagi barcha maʼlumotlarni domimiy ravishda aholiga rasmiy veb saytlar orqali maʼlumot sifatida berib borishi ochiqlik siyosatini taʼminlaydi.

Biroq, soʻnggi vaqtlarda ijtimoiy tarmoqlarda foydalanuvchilar tomonidan ayrim mahalliy hokimiyat vakillarining davlat budjeti hisobidan qilayotgan xarajatlari, qabul qilayotgan qarorlari keskin eʼtirozlarga, keng muhokamalarga sabab boʻlmoqda. Baʼzi holatlarda respublikamizning ayrim hududlarida davlat budjeti mablagʻlarini eng muhim ijtimoiy muammolarni hal etish uchun emas, balki mahalliy hokimiyat organlarining ayrim mansabdor shaxslari qarorlari asosida oʻzlari tanlagan loyihalarga yoʻnaltirilayotgan holatlar ham kuzatilmoqda.

Ushbu holatlarning oldini olish, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida davlat budjeti sohasini isloh etish jarayonida yangi tizim joriy etila boshlandi. Bu tizim «Ochiq budjet» portali deb nomlandi. Ushbu portal orqali korxonalar va tashkilotlar, jumladan aholimizga davlat budjetining daromad va xarajatlari, davlat qarzi boʻyicha maʼlumotlar eʼlon qilinib boriladi. Shu bilan birga aholimizni budjet islohotlarida faol ishtirok etishi uchun elektron platformada «Tashabbusli budjet» boʻlimi yaratilgan boʻlib, ushbu boʻlim orqali yurtdoshlarimiz oʻzlari yashab turgan mahallalarning infratuzilmalarini yaxshilash, bolalar va sport maydonchalari, ichki yoʻllarni qurish, bolalar bogʻchasi hamda maktablarni taʼmirlash va jihozlash hamda boshqa masalalar boʻyicha loyihalarni taklif etib, mahalliy budjetning taqsimlanishida ishtirok etishlari mumkin. Eng muhimi aholimiz davlat tomonidan berilayotgan bunday imkoniyatlardan toʻgʻri foydalanishi va faol ishtirok etishi talab etiladi.